

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**II RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

YANVAR, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, yanvar

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 2-son (yanvar, 2026-yil).– 343 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 22-yanvar

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Abdulbositova Muborak

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR 9-11

Anvarbekova Ruxsora

DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI YECHISHDA PYTHON KUTUBXONALARINING
IMKONIYATLARI 12-14

KIMYO FANLARI

Kosimova Zuxra

OKSIDLANISH STRESSI VA UNING TROMBOSITLAR FAOLIYATIGA TA'SIRI 15-18

Xoshimov Nozimjon, Kosimova Zuxra

ORGANIZMDAGI OKSIDLANISH STRESS HOLATIDA POLIFENOLLARNING ROLI 19-22

BIOLOGIYA FANLARI

Shertoyeva Risliqoy, Mavlanova Sadbarxon

O'ZBEKISTONNING SHARQIY MINTAQASIDA (NAMANGAN) YASHOVCHI 7–16 YOSHLI
BOLALAR VA O'SMIRLARDA KO'RISH CHAQRILGAN POTENSIALLARINING YOSHGA XOS
NORMATIV KO'RSATKICHLARI 23-25

TEXNIKA FANLARI

Qurbonov Mahmudjon, Umarov Abdusalam, Kuchkarov Khoshimjon, Khursanova Odina

STRUCTURAL FEATURES OF POLYAMIDE 6 WITH INCLUSIONS OF IRON OXIDE
NANOPARTICLES 26-38

Valixonov Ilyosbek

KOMPYUTERLI KO'RISH TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA IMO-ISHORA TILINI MATNGA
O'GIRISH TIZIMLARINI TADQIQ ETISH 39-42

Qurbonov Mahmudjon, Kuchkarov Khoshimjon, Umarov Abdusalam

WITH STRUCTURE FORMATION AND THE STRUCTURAL COMPOSITION OF THE
COMPOSITION BASED ON POLYAMIDE WITH IRON OXIDE NANOPARTICLES 43-53

TARIX FANLARI

Nurullayeva Nabira

ISLOHATLAR, YARATILGAN IMKONIYATLAR – XOTIN-QIZLAR UCHUN IMKONIYAT
ESHIGI 54-56

Yuldashev Ulugbek

O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM TIZIMI RIVOJLANISHI TARIXI 57-60

To'ychiyeva Dilnoza, Ergasheva Go'zal

ZOMIN TUMANIDAGI TURIZM TARMOQLARINING RIVOJI XUSUSIDA 61-64

Мирзамидинова Шахноза

ОСВЕЩЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРОБЛЕМАМИ ЯЗЫКА И
ОРФОГРАФИИ, В ПУБЛИЦИСТИКЕ АШУРАЛИ ЗОХИРИ 65-67

Raxmatov Xayrulla

BUXORO VOHASI MA'MURIY-HUDUDIIY BIRLIKLARI VA AHOLISI (XIX ASRNING SO'NGGI
CHORAGI – XX ASR BOSHLARIDA) 68-71

IQTISODIYOT FANLAR

Yusupov Nurillo

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA BOSHQARUV FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI 72-76

Mehmonova Shodiyonaxon

SHHT DOIRASIDA IQTISODIY HAMKORLIKNING RIVOJLANISHI VA UNING O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTIGA TA'SIRI 77-80

Ibadullaeva Shokhida

EXPERIENCES OF DEVELOPED COUNTRIES IN APPLYING MARKETING STRATEGIES IN
EXPORTING ENTERPRISES 81-87

Yusupov Nurillo

KORXONALARNING BOSHQARUV TIZIMI SAMARADORLIGINI BAHOLASH
USULLARI 88-92

FALSAFA FANLARI

Rahmatullayev Mardonbek

KIBER MAKONDA SHAXSIY VA JAMOAVIY ERKINLIKNI MUVOZANATLASH
STRATEGIYALARI 93-96

Nabiyev Sherzodjon

DIGITAL DUNYODA YOSHLAR SHAXSIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI
MUAMMOLAR 97-102

Saydaliyev Ilyosbek

MURAKKAB MUHITDAN KELGAN YOSHLARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI
SHAKLLANTIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATINING IJTIMOY-FALSAFIY RO'LI 103-106

Meliboev Azizjon

YANGI O'ZBEKISTONDA SIFATLI TA'LIM ORQALI KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASH VA
XALQ FAROVONLIGINI TA'MINLASH 107-111

FILOLOGIYA FANLARI

Aminov Farrux

INGLIZ VA O'ZBEK OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA AXBOROT UZATISHNING
MULTIMODAL STRATEGIYALARI VA KOGNITIV MEKANIZMLARI 112-119

Jo'rayeva Madinaxon

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR: O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI VA SUN'IY INTELLEKT SOHASIDAGI INNOVATSIYALAR
MISOLIDA 120-124

Isakova Barchinoy

JEK LONDONNING "MARTIN IDEN" HAMDA O'TKIR HOSHI MOVNING "NUR BORKI, SOYA
BOR" ROMANLARIDAGI POETIK VOSITALAR TAHLILI 125-128

Азизова Насиба

ИССЛЕДОВАНИЕ КОНЦЕПТА ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ
КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ А. С. ПУШКИНА, Н. В. ГОГОЛЯ И Л. Н.
ТОЛСТОГО АЛИШЕРА НАВОИ, ЗАХИРИДДИНА БАБУРА) 129-134

Toshboyeva Odinaxon

INGLIZ VA O'ZBEK INTERNET GAZETA SARLAVHALARIDA LEKSIK-SEMANTIK VA SINTAKTIK
VOSITALAR ASOSIDA PRAGMATIK PRESUPPOZITSIYANING IFODALANISHI 135-138

<i>Umirzakova Dilnoza</i>	
ANIMATSION FILMLAR TARJIMASIDA LINGVOPRAGMATIK OMILLAR: QIYOSIY TADQIQOT	139-144
<i>Jabborova Aziza</i>	
SIYOSIY KOMMUNIKATSIYADA EVFEMIZMLARNING AUDITORIYAGA TA'SIRI	145-149
<i>Boykhanov Shukhratjon</i>	
UNDERSTANDING ENGLISH PROVERBS: LEXICAL, STYLISTIC, PSYCHOLOGICAL, AND PRAGMATIC DIFFICULTIES	150-155
<i>Narzulloyeva Maftuna</i>	
A COMPARATIVE ANALYSIS OF OFFICIAL LETTERS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	156-158
<i>Abdullayeva Dildora</i>	
QUTADG'U BILIG FRAZELOGIZMLARINING SEMANTIK-PRAGMATIK TABIATI VA LISONIY TADQIQI	159-162
<i>Umrzaqov Islomjon</i>	
"JANUB RENESSANSI" DAVRI ASARLARIDA BADIY MAKON VA ZAMON POETIKASI	163-165
<i>Fayzullayeva Nozima</i>	
YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR	166-168
<i>Ergashev Nodirbek</i>	
SOCIAL INJUSTICE AND MORAL VALUES IN "OLIVER TWIST" BY CHARLES DICKENS	169-171
<i>Ubaydullaeva Dilfuza</i>	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MODELLARI (IJTIMOIY-GUMANITAR YO'NALISHDA)	172-178
GEOGRAFIYA FANLARI	
<i>Umarov Javohir</i>	
FARG'ONA VILOYATI YER RESURSLARIDAN QISHLOQ XO'JALIGIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	179-185
YURIDIK FANLAR	
<i>Hakimboyeva Dildora</i>	
ELEKTRON HUKUMAT VA MA'MURIY HUQUQ MUNOSABATLARINING TRANSFORMATSIYASI	186-188
<i>Самигжонов Зилола</i>	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ НОРМЫ, РЕГУЛИРУЮЩИЕ ЗАЩИТУ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В СЕТИ ИНТЕРНЕТ	189-195
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Xomidjonov Abrorjon</i>	
OLIY VA PROFESSIONAL TA'LIMDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALARNI TATBIQ ETISH TAJRIBASI	196-202

<i>Sodiqova Gulnora</i> KASBIY TA'LIM TIZIMIDA ISH BERUVCHILAR BILAN SAMARALI KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARI	203-208
<i>Soliyeva Gavharoy</i> "HISOBLASH USULLARI" FANI BO'YICHA O'QUV KONTENTI	209-212
<i>Isaqov Abduvohid</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA METODIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH: ASOSIY TUSHUNCHALAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	213-217
<i>Юсупова Наргиза, Юсупов Дильшод</i> ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИХ ДЕЙСТВИЙ ЮНЫХ ТАЭКВОНДИСТОВ: АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВ РАЗВИТИЯ	218-221
<i>Ganiyev Elyorbek</i> TALABALARDA HUQUQIY TAFAKKUR VA TAHLILII KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODIKASI	222-226
<i>Xabibullayev Alimardon</i> TALABALAR MOBILLIGI VA QO'SHMA TA'LIM ASOSIDA INNOVATSION VA BARQAROR RIVOJLANISH MODELINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK- INSTITUTSIONAL ASOSLARI	227-233
<i>Nigmatova Nozimaxon</i> INGLIZ TILINI O'QITISHDA GENERATIV SUN'IY INTELEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING XORIJIY AMALIYOTI VA PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	234-237
<i>Юсупова Наргиза</i> АНАЛИЗ БИОМЕХАНИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ АТАКУЮЩИХ ДЕЙСТВИЙ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ ТАЭКВОНДИСТОВ (WT)	238-241
<i>Abdullayeva Asila</i> O'ZBEKISTONNING SO'NGGI TARIXI VA FALSAFA FANINI O'QITISHDA DIDAKTIK UYG'UNLIK	242-247
<i>Ergasheva Nigora</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNING METODIK VAZIFALARI	248-251
<i>Alimova Mashxuraxon</i> BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA TA'LIMI DARSLARIDA TABIIY MATERIALLARDAN BUYUMLAR TAYYORLASHDA KONSTRUKSIYALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	252-255
<i>G'ofurova Barnoxon</i> TALABALARNING KONSEPTUAL FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA OLIY TA'LIMNING METODIK SHART-SHAROITLARI VA PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	256-260
<i>Axmedov Yodgorbek</i> ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIK LITSEYLARI O'QUVCHILARINING MUSTAQIL O'QUV FAOLIYATIDA TINKERCAD PLATFORMASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	261-263

<i>Qozaqova Munajat</i> MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANINI O'QITISHDA TALABALAR LOYIHALASH KO'NIKMASINI KO'RGAZMALILIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	264-267
<i>Парниева Айгуль</i> АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ СОВРЕМЕННОГО СТУДЕНТА	268-271
<i>Nosirova Shoiraxon</i> INGLIZ TILIDA KASBIY MULOQOT XULQINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI	272-278
<i>Azizova Mohiniso, G'ulomova Sevara</i> MAKTAB DARSLARIDA RA'NODOSHLILAR OILASINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH	279-281
<i>Jalilova Xolidaxon</i> METHODOLOGY FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF TEACHING ENGLISH USING WEBQUEST TECHNOLOGY	282-284
<i>Abduvaxobov Shohruhbek</i> MASOFADAN TA'LIM JARAYONIDA UCHRAYDIGAN AMALIY MASALALAR VA ULARNI BARTARAF ETISH BO'YICHA METODIK YONDASHUVLAR	285-287
<i>Аюпов Тимур</i> СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В ВУЗАХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	288-290
<i>Tillayeva Nilufar</i> DIALOGIC PEDAGOGY IN ESL WRITING: THE ROLE OF SOCRATIC SEMINARS	291-294
<i>Sobirova Feruza</i> BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIDA DARSNI REJALASHTIRISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	295-299
<i>Karimova Sadoqat</i> CONCEPTUAL AND METHODOLOGICAL APPROACHES TO TEACHING ENGLISH TO PRESCHOOL CHILDREN IN A MONTESSORI EDUCATIONAL ENVIRONMENT	300-302
<i>Солохиддинова Фазилятхон</i> МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНЫХ УЧЕБНЫХ ДЕЙСТВИЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В АСПЕКТЕ РАЗВИТИЯ ГРАММАТИЧЕСКОГО ПОНЯТИЯ «ИМЯ СУЩЕСТВИТЕЛЬНОЕ»	303-306
<i>Sayidova Nilufar</i> ZAMONAVIY MUZEY EKSPOZITSİYALARIDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING ILMIY - AMALIY AHAMIYATI	307-310
<i>Ne'matova Mahfuzaxon</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHISINING NUTQ FAOLIYATINI FAOL RIVOJLANTIRISHDA FE'L SO'Z TURKUMINING TUTGAN O'RNI	311-313

TIBBIYOT FANLARI

Sobirova Mavludaxon

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR314-316

Ахмаджонова Хуршидабону, Рустамова Шахиста

НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ИЗУЧЕНИЮ НАСЛЕДСТВЕННАЯ

ПРЕДРАСПОЛОЖЕННОСТЬ ВИРУСАМИ ГЕПАТИТА С (HCV) И В (HBV) НА

МОЛЕКУЛЯРНОМ УРОВНЕ317-322

Xoshimov Muslimbek, Karimjonov Jaloliddin, Inomov Kamoliddin, Izatullayeva Mohlaroyim

O'ZBEKISTONDA NEYRODEGENERATIV KASALLIKLARNING TARQALISH SABABLARI VA

NEYRODEGENERATIV KASALLIKLAR RIVOJLANISHIDA ASTROSITLARDAGI REAKTIV

O'ZGARISHLAR323-326

Мамарова Шодила, Инатуллаева Рано, Сотиболдиева Умида, Кодиржанов Жавохир

ВИТАМИН D: МЕТАБОЛИЗМ, БИОЛОГИЧЕСКАЯ РОЛЬ, ДЕФИЦИТ И

ПРОФИЛАКТИКА327-336

PSIXOLOGIYA FANLARI

Ismoilov Temurbek

VERBAL KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA MADANIY VA IJTIMOY

KONTEKSTNING ROLI337-342

SIYOSIY KOMMUNIKATSIYADA EVFEMIZMLARNING AUDITORIYAGA TA'SIRI

Jabborova Aziza

Namangan Davlat Universiteti tayanch doktoranti,
Namangan, O'zbekiston

Annotatsiya. Bu maqola siyosiy kommunikatsiyada evfemizmlarning auditoriyaga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda evfemizmlar siyosiy nutqda salbiy yoki noqulay voqeliklarni yumshatib ifodalash orqali auditoriya hissiy holatiga va nutqning qabul qilinishiga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilinadi. Tadqiqot materiali sifatida ingliz va o'zbek siyosiy diskursiga mansub ommaviy auditoriyaga yo'naltirilgan rasmiy nutqlar tanlangan. Tahlil jarayonida diskursiv, lingvopragmatik va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, evfemizmlar auditoriyada keskin salbiy reaksiya paydo bo'lishining oldini olish, ijtimoiy muvozanatni saqlash va siyosiy nutqning ta'sirchanligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, evfemizmlardan haddan tashqari yoki noo'rin foydalanish auditoriyada ishonchsizlik va yashirin norozilikni keltirib chiqarishi mumkinligi aniqlandi. Maqolada evfemizmlarning auditoriyaga ta'siri ingliz va o'zbek siyosiy diskursi misolida qiyosiy yoritiladi.

Kalit so'zlar: siyosiy kommunikatsiya, siyosiy diskurs, evfemizm, auditoriyaga ta'sir, lingvopragmatika, qiyosiy tahlil, ingliz va o'zbek siyosiy nutqlari.

THE IMPACT OF EUPHEMISMS ON THE AUDIENCE IN POLITICAL COMMUNICATION

Jabborova Aziza

Doctoral Student (PhD), Namangan State University
Namangan, Uzbekistan

Annotation This article is devoted to the study of the impact of euphemisms on the audience in political communication. The research analyzes how euphemisms, by softening negative or uncomfortable realities in political speech, influence the emotional state of the audience and the perception of political messages. The research material consists of official political speeches addressed to a mass audience in English and Uzbek political discourse. Discourse analysis, linguo-pragmatic analysis, and comparative methods were employed in the course of the study. The findings show that euphemisms serve as an important tool for preventing strong negative reactions among the audience, maintaining social balance, and increasing the persuasive power of political speech. At the same time, it was revealed that excessive or inappropriate use of euphemisms may lead to distrust and latent dissatisfaction among the audience. The article provides a comparative analysis of the impact of euphemisms on audiences in English and Uzbek political discourse.

Keywords: political communication, political discourse, euphemism, audience impact, linguopragmatics, comparative analysis, English and Uzbek political speeches.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymdif-y2026v2i2/n28>

KIRISH

Siyosiy kommunikatsiya jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi, chunki siyosiy qarorlar, ijtimoiy jarayonlar va hokimiyat faoliyati aynan nutq orqali jamoatchilikka yetkaziladi. Siyosiy nutqlar hech qachon oddiy axborot berish bilangina cheklanmaydi, balki auditoriyaning fikriga ta'sir ko'rsatish, uni ishonтираш yoki ma'lum yo'nalishga yo'naltirishni ham ko'zlaydi. Shu sababli siyosiy nutq mualliflari til birliklarini ongli va ehtiyotkorlik bilan tanlaydi.

Tilshunoslikda siyosiy nutqning ta'sirchanligini oshiruvchi vositalardan biri sifatida evfemizmlar alohida e'tirof etiladi. Evfemizmlar salbiy, noqulay yoki ijtimoiy jihatdan keskin

bo'lgan tushunchalarni yumshatilgan shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Bu hodisa nafaqat tilning estetik jihati, balki auditoriya psixologiyasi bilan ham bevosita bog'liqdir. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, evfemizmlar nutqda "yuzni saqlash" (face-saving) strategiyasining muhim qismi hisoblanadi. Jumladan, Politeness: Some Universals in Language Usage asarida evfemistik ifodalar insonlarning ijtimoiy obro'si va hissiy holatini himoya qilishga xizmat qilishi qayd etiladi [2; 61–62-b.].

Siyosiy kontekstda esa evfemizmlar yanada strategik ahamiyat kasb etadi. Siyosiy nutqda urush, iqtisodiy inqiroz, ishsizlik yoki muvaffaqiyatsizlik kabi tushunchalar ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri emas, balki yumshatilgan shaklda ifodalanadi. Bu holat auditoriyada salbiy reaksiya uyg'otmaslik, ijtimoiy keskinlikni pasaytirish va hukumat yoki siyosiy lider imijini saqlab qolishga xizmat qiladi. Analysing Political Discourse: Theory and Practice asarida siyosiy nutqning asosiy vazifalaridan biri auditoriya ongini shakllantirish ekanligi ta'kidlanib, evfemizmlar ana shu jarayonning muhim diskursiv vositasi sifatida ko'rsatiladi [3; 46–47-b.].

Evfemizmlarning auditoriyaga ta'siri masalasi kognitiv va psixolingvistik jihatdan ham izohlanadi. Inson ongida so'zlar nafaqat ma'no, balki baho va hissiy munosabatni ham uyg'otadi. Shuning uchun siyosiy nutqda ishlatilgan evfemizm auditoriya tomonidan voqelikning yumshatilgan, kamroq xavfli shakli sifatida qabul qilinishi mumkin. Bu fikr Don't Think of an Elephant! asarida aniq misollar orqali asoslanadi. Muallif siyosiy til auditoriya tafakkurini "ramkalash" orqali boshqarishini va yumshatilgan ifodalar jamoatchilik qarashlarini sezilarli darajada o'zgartirishi mumkinligini ko'rsatadi [4; 3–5-b.].

Shu nuqtai nazardan, siyosiy kommunikatsiyada evfemizmlarning auditoriyaga ta'sirini o'rganish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Ayniqsa, ingliz va o'zbek siyosiy diskursini qiyosiy tahlil qilish orqali evfemizmlarning turli madaniyatlarda auditoriya ongiga qanday ta'sir ko'rsatishi, qaysi hollarda ishonchni oshirishi yoki aksincha, yashirin norozilikni keltirib chiqarishi aniqlanishi mumkin. Mazkur maqolada aynan shu masala lingvopragmatik va diskursiv yondashuv asosida tadqiq etiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Siyosiy kommunikatsiyada tilning auditoriyaga ta'siri masalasi tilshunoslik, diskurs tahlili va siyosiy fanlar chorrahasida keng o'rganilgan. Tadqiqotchilar siyosiy nutqni faqat axborot uzatish vositasi emas, balki auditoriya ongini shakllantiruvchi va boshqaruvchi mexanizm sifatida talqin qiladilar. Shu nuqtai nazardan, evfemizmlar siyosiy diskursning muhim lingvopragmatik unsurlaridan biri sifatida ilmiy e'tiborni tortgan.

Evfemizmlar nazariy jihatdan dastlab umumtil hodisasi sifatida o'rganilgan. Euphemism and Dysphemism: Language Used as Shield and Weapon asarida evfemizm til orqali ijtimoiy noqulaylikni kamaytirish, salbiy reallikni yashirish yoki yumshatish uchun qo'llaniladigan vosita sifatida ta'riflanadi. Mualliflar evfemizmlarning auditoriyaga psixologik ta'siri borligini, ular nutqni qabul qilish jarayonida salbiy hissiy reaksiyani pasaytirishini qayd etadilar [1; 11–13-b.]. Ushbu yondashuv evfemizmlarni faqat leksik hodisa emas, balki kommunikativ strategiya sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Siyosiy kontekstda evfemizmlarning o'rni alohida tadqiq qilingan. Analysing Political Discourse: Theory and Practice siyosiy nutqni hokimiyat va ideologiya bilan bog'liq diskurs sifatida tahlil qilib, unda evfemizmlarning auditoriya ongini boshqarishdagi roliga alohida e'tibor qaratadi. Chilton siyosiy nutqda salbiy hodisalarni yumshatilgan nomlar bilan ifodalash

orqali jamoatchilik qarashlarini qayta shakllantirish mumkinligini ta'kidlaydi [3; 46–48-b.]. Uning fikricha, evfemizmlar auditoriya uchun voqelikning “kamroq xavfli” tasvirini yaratadi.

Evfemizmlarning auditoriyaga ta'siri masalasi pragmatika va nutq etikasi bilan ham chambarchas bog'liq. Politeness: Some Universals in Language Usage tomonidan ishlab chiqilgan “yuzni saqlash” (face-saving) nazariyasi evfemizmlarning ijtimoiy funksiyasini izohlashda muhim ahamiyatga ega. Mualliflar evfemistik ifodalar tinglovchining hissiy holatini himoyalashga xizmat qilishini ko'rsatadilar [2; 61–65-b.]. Siyosiy nutqda esa bu strategiya ommaviy auditoriya bilan ziddiyatga bormaslik, norozilikni yumshatish uchun qo'llaniladi.

Kognitiv yondashuv doirasida evfemizmlar auditoriya tafakkurini shakllantiruvchi vosita sifatida talqin qilinadi. Don't Think of an Elephant! siyosiy tilni “ramkalash” (framing) tushunchasi orqali izohlaydi. Lakoffning fikricha, siyosiy nutqda ishlatilgan yumshatilgan ifodalar auditoriya ongida voqelikning ma'lum bir talqinini mustahkamlaydi –[4; 3–7-b.]. Bu yondashuv evfemizmlarning auditoriya qarashlariga bevosita ta'sirini tushuntirib beradi.

Siyosiy evfemizmlar va jamoatchilik fikri o'rtasidagi bog'liqlik Political Discourse Analysis ishlarida ham ko'rib chiqilgan. Van Dijk siyosiy nutqni ideologik ta'sir vositasi sifatida baholab, unda evfemizmlar ijtimoiy tengsizlik va salbiy siyosiy qarorlarni yashirishga xizmat qilishini qayd etadi [5; 28–30-b.]. Uning yondashuvi evfemizmlarning auditoriyani manipulyatsiya qilish ehtimolini ochib beradi.

O'zbek tilshunosligida ham siyosiy nutq va nutq madaniyati masalalari muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, siyosiy nutqda ehtiyotkorlik, andisha va etik me'yorlarga rioya qilish zarurati ta'kidlanadi. Bu jihatlar evfemizmlarning o'zbek siyosiy diskursida auditoriyaga ta'sirini tushuntirishda muhim madaniy omil bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, evfemizmlar siyosiy kommunikatsiyada auditoriya ongiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim diskursiv vosita hisoblanadi. Biroq ingliz va o'zbek siyosiy diskursida evfemizmlarning auditoriya tomonidan qabul qilinishi va baholanishi masalasi hali yetarlicha qiyosiy tadqiq etilmagan. Mazkur maqola aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratiladi.

METODOLOGIYA

Tahlilda diskursiv tahlil va lingvopragmatik tahlil metodlari qo'llanildi. Diskursiv tahlil evfemizmlarning siyosiy nutqdagi strategik vazifasi va ideologik yukini aniqlashga xizmat qildi [5; 12–14-b.; 3; 40–45-b.]. Lingvopragmatik tahlil orqali evfemizmlarning auditoriyada salbiy reaksiya kamaytirish, ijtimoiy muvozanatni saqlash va ishonch uyg'otishdagi roli o'rganildi [1; 15–18-b.].

Shuningdek, qiyosiy tahlil metodi yordamida ingliz va o'zbek siyosiy nutqlaridagi evfemizmlarning auditoriya tomonidan qabul qilinishidagi madaniy farqlar aniqlandi. Tadqiqotda kognitiv yondashuv elementlari ham qo'llanilib, evfemizmlarning auditoriya ongida voqelikni yumshatilgan tarzda “ramkalashi” tahlil qilindi [4; 3–6-b.].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Siyosiy kommunikatsiyada evfemizmlar auditoriya tomonidan voqelikning yumshatilgan shakli sifatida qabul qilinadi. Siyosiy nutqlarda salbiy mazmunli hodisalar ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri emas, balki evfemistik ifodalar orqali yetkaziladi. Masalan, ingliz siyosiy diskursida *war* so'zi o'rniga *military operation* yoki *armed intervention* kabi birliklarning qo'llanishi auditoriyada keskin salbiy reaksiya uyg'otmaslikka xizmat qiladi. Bu holat evfemizmlarning salbiy hissiy yukni kamaytirish funksiyasini yaqqol ko'rsatadi.

Xuddi shunday, o'zbek siyosiy nutqlarida iqtisodiy muammolar ko'pincha *inqiroz* atamasi bilan emas, balki *qiyin davr* yoki *muammoli vaziyat* kabi yumshatilgan ifodalar bilan bayon etiladi. Bu turdagi evfemizmlar auditoriya ongida vaziyatning nazorat ostida ekanligi haqidagi tasavvurni shakllantiradi va ijtimoiy vahimani kamaytirishga xizmat qiladi.

Ushbu natijalar evfemizmlarning kommunikativ vazifasi haqida fikr bildirgan Euphemism and Dysphemism: Language Used as Shield and Weapon qarashlari bilan mos keladi. Mualliflar evfemizmlarni salbiy voqelikdan auditoriyani himoyalovchi til vositasi sifatida baholaydilar [1; 15–18-b.]. Tadqiqotda aniqlangan misollar ushbu nazariy xulosani amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, ingliz siyosiy nutqlarida evfemizmlar ko'proq siyosiy korrektlik va rasmiylikni saqlashga xizmat qilsa, o'zbek siyosiy diskursida ular auditoriya bilan muloqotni yumshatish va andisha tamoyilini ta'minlash vazifasini bajaradi. Masalan, ingliz nutqlarida *collateral damage* iborasi tinch aholi talofatini bevosita tilga olmaslik uchun qo'llansa, o'zbek siyosiy nutqlarida *aholi zarar ko'rgan holatlar* kabi ifodalar xuddi shu vazifani bajaradi.

Shuningdek, evfemizmlarning auditoriya ongini "ramkalash" xususiyati aniqlandi. Yumshatilgan ifodalar voqelikni kamroq xavfli va boshqariladigan holat sifatida qabul qilishga undaydi. Bu holat siyosiy til va ong munosabati haqida yozgan Don't Think of an Elephant! tomonidan ilgari surilgan g'oyalar bilan uyg'unlashadi [4; 3–6-b.].

Muhokama jarayonida shuningdek, evfemizmlarning auditoriya tomonidan har doim ham ijobiy qabul qilinmasligi aniqlandi. Ayrim hollarda auditoriya evfemistik ifodalarni sun'iy yoki ishonchsiz deb baholashi mumkin. Bu holat evfemizmlardan haddan tashqari foydalanish siyosiy nutqning ta'sir kuchini pasaytirishi mumkinligini ko'rsatadi.

XULOSA

Bu maqola siyosiy kommunikatsiyada evfemizmlarning auditoriyaga ta'sirini tahlil qilishga qaratildi. Evfemizmlar siyosiy nutqda salbiy mazmunli hodisalarni yumshatib yetkazish orqali auditoriyada keskin hissiy reaksiya yuzaga kelishining oldini olishga xizmat qiladi. Bu holat siyosiy nutqning qabul qilinishini osonlashtiradi va ijtimoiy barqarorlikni saqlashga yordam beradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, evfemizmlarning auditoriyaga ta'siri ularning qo'llanish konteksti va madaniy muhitiga bevosita bog'liq. Ingliz siyosiy diskursida evfemizmlar ko'proq siyosiy korrektlik va rasmiy muloqotni ta'minlashga xizmat qilsa, o'zbek siyosiy nutqlarida ular andisha va ijtimoiy muvozanatni saqlash vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu farq evfemizmlarning universal emas, balki milliy-madaniy xususiyatlarga ega ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, tadqiqot evfemizmlarning auditoriya ongini bilvosita "ramkalash" xususiyatiga ega ekanini aniqladi. Yumshatilgan ifodalar voqelikni kamroq xavfli va boshqariladigan holat sifatida qabul qilishga undaydi. Biroq evfemizmlardan haddan tashqari yoki noo'rin foydalanish auditoriyada ishonchsizlik va yashirin norozilikni keltirib chiqarishi mumkinligi ham aniqlandi. Umuman olganda, evfemizmlar siyosiy kommunikatsiyada auditoriyaga ta'sir ko'rsatuvchi samarali lingvopragmatik vosita hisoblanadi. Ularni ongli va me'yorida qo'llash siyosiy nutqning ta'sirchanligini oshirsa, me'yor buzilganda esa kommunikativ samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mazkur xulosalar ingliz va o'zbek siyosiy diskursini qiyosiy o'rganish orqali evfemizmlarning auditoriya bilan muloqotdagi real funksiyalarini yoritib beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Allan, Keith, and Kate Burridge. Euphemism and Dysphemism: Language Used as Shield and Weapon. Oxford University Press. 1991.
2. Brown, Penelope, and Stephen C. Levinson. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge University Press. 1987.
3. Chilton, Paul. Analysing Political Discourse: Theory and Practice. Routledge. 2004.
4. Lakoff, George. Don't Think of an Elephant!: Know Your Values and Frame the Debate. Chelsea Green Publishing. 2004.
5. van Dijk, Teun A. Political Discourse Analysis. *In* Discourse as Social Interaction, edited by Teun A. van Dijk, Sage Publications. 1997.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, yanvar

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 2-son (yanvar, 2026-yil). – 343 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 22-yanvar

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.